

## IMOM AL BUXORIY ASARLARINI PEDAGOGIK AHAMIYATI

**Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna**

Andijon davlat tibbiyot instituti

“O`zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrası o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Har bir mamlakatning poydevori yosh avlod hisoblanadi. Yoshlar yurt kelajagidir. Yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim vazifadir. Yosh avlodga kerakli bilimlarni berish orqali biz kelajagimiz poydevorini mustahkam qurishimiz mumkin. Yosh avlodaga ilg`or bilim berishda ajdodlarimizning asarlaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu maqolada muhaddis olim Imom al-Buxoriy asarlarining pedagogik ahamiyati keng yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Imom al-Buxoriy, taʼlim, pedagog, tizim, yosh avlod, taʼlim-tarbiya, hadis, odoḃ-axloq, maʼnaviyat, madaniyat, pedagogika.

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ

**Шабдуллаева Лазокатхан Орифбековна**

Андижанский государственный медицинский институт

Преподаватель кафедры «Узбекский язык и литература, языки»

Абстрактный. Основа каждой страны – молодое поколение. Молодёжь – будущее страны. Важной задачей является воспитание молодых людей, чтобы они стали зрелыми и всесторонне развитыми личностями. Передавая необходимые знания подрастающему поколению, мы можем заложить прочный фундамент для нашего будущего. Труды наших предков широко используются для передачи передовых знаний подрастающему поколению. В данной статье широко освещено педагогическое значение трудов мухаддистоведа Имама аль-Бухари.

Ключевые слова: Имам аль-Бухари, образование, педагог, система, молодое поколение, образование, хадис, нравы, духовность, культура, педагогика.

## **PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE WORKS OF IMAM AL- BUKHARI**

**Shabdullaeva Lazokatkhan Orifbekovna**

Andijan State Medical Institute

Lecturer of the Department of "Uzbek Language and Literature, Languages"

Abstract. The foundation of each country is the young generation. Youth is the future of the country. An important task is to educate young people so that they become mature and comprehensively developed individuals. By passing on the necessary knowledge to the younger generation, we can lay a solid foundation for our future. The works of our ancestors are widely used to pass on advanced knowledge to the younger generation. This article widely covers the pedagogical significance of the works of the muhaddi scholar Imam al-Bukhari.

Keywords: Imam al-Bukhari, education, teacher, system, young generation, education, hadith, morals, spirituality, culture, pedagogy

### **Kirish qism:**

Yangilanayotgan O'zbekistonimiz Renessans davrining 3-bosqichini boshidan kechirmoqda. Bugungi kunda islohotlar soni ko'paymoqda. Bu islohotlarning juda katta qismi ta'lim sohasiga qaratilmoqda. Bunga asosiy sabab yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda ta'lim tizimi muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni ongiga o'zbek milliy madaniyatini va milliy tuyg'usini singdirish muhim vazifalardan biridir. Har bir yosh avlodni odobli va andishali qilib tarbiyalashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Ta'lim tizimida buyuk mutafakkirlarimizning asarlarini o'rganish va ular amalda ko'rsatib o'tgan metodlardan keng ko'lamda foydalanish orqali samarali yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan muhadis olim Imom al-Buxoriy bobomizning asarlarini o'rganish orqali

o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelinmoqda.

**Mavzuning dolzarbligi:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy qamariy taqvim bo'yicha 1225-yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarori (1997-yil. 29 aprel.) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. (1998-yil 23 oktabrda). Samarqandda yubiley to'ytantanalari bo'lib o'tdi. Buxoriyning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I. A. Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi tuzildi (1998-yil . 4-noyabr; raisi Zohidillo Munavvarov). Jamg'armaning asosiy vazifasi Qur'oni karim va Buxoriyning «al Jomi' as-sahih»i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o'tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an'analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag'ishlab bir necha tillarda kitob, albom, 2 qismli film (1995), «Hadis ilmining sultoni» 4 qismli kinoqissa (1998) yaratilgan.

**Mavzuning metodologik asosi:** Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o'zining go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatligi, himmatligi va beqiyos saxovatliligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o'tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g'oyat shuhrat qozongan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan. Imom al-Buxoriyning hadislari ta'lim tizimida qo'llanilib kelinayotgan darsliklardan joy olgan. Har bir o'quvchini keng mushohadaga solib qo'yadigan bu hadislar o'quvchini hayot davomida o'zgarib borayotgan xulq-atvoriga va odob-

axloqiga ijobiy ta'sir qiladi. Ayniqsa, o'smir yoshdagi yosh o'g'il-qizlarga Imom al-Buxoriy bobomizning hadislarini to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi. Imom al-Buxoriy asarlarining pedagogik ahamiyati ham mana shunda. Muhadis olimning hadislarini har qanday o'quvchini qalbini zabt eta oladi hamda odobli bo'lib voyaga yetishida xizmat qiladi. Bilim olishning qanchalik savobli ekanligini, bilimli kishi hech qachon xor bo'lmasligini o'quvchilar anglab yetadi. Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. Jumladan, taniqli adib va tarixchi an-Nuvayriy (1332 yilda vafot etgan) al-Buxoriyning ushbu asaridan sakkiz nusxa ko'chirib, har birini ming dirhamdan sotgan. 1325 yilda ko'chirilgan sakkiz jilddan iborat go'zal bir nusxasi hozir Istanbulda saqlanmoqda. «Al-Jome' as-sahih»ga ko'pdan-ko'p sharhlar bitilgan bo'lib, muhim manba sifatida u qayta-qayta nashr ham qilingan. Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo'lgani «Al-jome' as-Sahih»dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo'lgan ilmlarga oid bir qator o'ta ahamiyatli kitoblar yozdi.

**Natijalar va muhokamalar:** Buxoriy yaratgan „Kitob alfavoid“ („Foydali ashyolar haqida kitob“), „Al Jomi' al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „Xalq af'ol alibod“, („Alloh bandalari ishlarining tabiati“), „Al Musnad al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „Attafsir alkabiyr“ („Katta tafsir“), „Kitob alxiba“ („Xayrehson haqida kitob“) va boshqa asarlarning ba'zilar bizgacha yetib kelmagan. Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan «Al-jome' as-sahih», «Al-adab al-mufrad», «At-ta'rix as-sag'ir», «At-ta'rix al-avsot», «At-ta'rixal-kabir», «Kitob al-ilal», «Barr ul-volidayn», «Asomi us-sahoba», «Kitob al-kuna» va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, «Al-jome' as-sahih»dir.

Imom al-Buxoriy asarlarining ko'p qismi nafaqat bizning yurtida boshqa mamlakatlarda ham ta'lim tizmining beqiyos namunasi hisoblanadi. Qohira, Quvayt, Abu-Dabi, BAA va bir nechta arab davlatlarida ham Imom al-Buxoriy asarlari ta'lim sohasida keng qo'llanilib kelinmoqda.

**Xulosa:** Imom al-Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va halollikka da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o'zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riqlar, pand-nasihati va o'g'itlar aks ettirilgan. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha Madrasa va dorilfununlarida payg'ambar (as) sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abu Abdulloh idn Ismoil Al-Buxoriy. "Al-adab al-mufrad" – T.: O'zbekiston, 1999
2. Hoshimov K. Nishonova S Pedagogika tarixi. Darslik –T: O'qituvchi, 2005 yil.
3. Mansurov A., Jo'rayev., Lafasov., M Hadis ilmi saboqlari.-T.:1999, Gofur Gulom nashriyoti.
4. Usmonxon Hoji Temurxon o'g'li va Baxtiyor Nabixon O'gli., Imom Al-Buxoriy Muhaddislar Sultoni. -T.:1999.
5. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
6. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific

progress,

1(6).

7. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress, 1(6).

8. <https://www.Ziyo.net>

9. <https://www.scientificprogress.uz>

10. <https://www.Pedagog.uz>